



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

100011, Toshkent sh., Navoiy ko‘chasi, 4, tel.: (998 71) 241-08-95, 241-68-95,
www.ssv.uz, e-mail: info@ssv.uz, ssv@exat.uz

2023 yil “13” iyun

09-15872 - son

Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Sog‘liqni saqlash vazirligi,
Toshkent shahar Sog‘liqni saqlash Bosh
boshqarmasi, viloyatlar sog‘liqni saqlash
boshqarmalari,
Vazirlik tasarrufidagi
tibbiyot Oliy ta’lim muassasalari
(filial direktorlari) va ilmiy tashkilotlarga

“Ginekologiya va reproduktologiyaning dolzarb muammolari”
mavzusidagi xalqaro anjumanni o‘tkazish to‘g‘risida
KO‘RSATMA-XAT

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash vazirligining 2023-yilga mo‘ljallangan asosiy tashkiliy tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. 2023-yilning 17-iyun kuni Toshkent shahrida “Ginekologiya va reproduktologiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazilsin.

2. Toshkent tibbiyot akademiyasiga (A.Shadmanov), Ilm-fan va ta’lim boshqarmasi boshlig‘i (O‘.Ismailov), Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti boshlig‘i (U.Gaziyeva) anjumanga puxta tayyorgarlik ko‘rgan holda, belgilangan muddatda yuqori ilmiy va tashkiliy saviyada o‘tkazilishi taminlansin.

3. Toshkent tibbiyot akademiyasi rektori A.Shadmanovga:

-anjuman o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mita tarkibi, tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhlar tarkibi tasdiqlansin;

-sertifikatlarni tayyorlash va anjuman qatnashchilarini o‘rnatilgan tartibda sertifikatlar bilan taminlash amalga oshirilsin;

-anjumanni o‘tkazish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha sarf-xarajatlar homiyar va byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan qoplanishi nazarda tutilsin;

- anjuman o‘tkazganligi to‘g‘risidagi hisobotni 3 kun muddat ichida Ilm-fan va ta’lim boshqarmasiga taqdim etilishi ta’minlansin;

4. Tadbir ishini ommaviy axborot vositalari orqali yoritish Matbuot va PR xizmati rahbari (F.Sanayev)ga yuklatilsin.

5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vaziri, Toshkent shahar sog‘liqni saqlash Bosh boshqarmasi va viloyatlar Sog‘liqni saqlash boshqarmalari boshliqlariga, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari rektorlari muassasalari (filial direktorlari), ilmiy-tashkilotlar direktorlariga ilovaga muvofiq anjuman ishida qatnashish uchun o‘z vakillarini yuborishi ta‘minlansin.

6. Ushbu ko‘rsatma xat ijrosini nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir o‘rinbosari



E.Basitxanova

Ijrochi: Z.Muminova

ID: 409886

Sana: 13.06.2023